


XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI




Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 50 220 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 26 461 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 52,7 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (48,2 %), savdo (17,5 %), sanoat (10,2 %) va qurilish (5,0 %) sohalariga to'g'ri keldi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)





Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2024- yil 1-oktabr holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
Jami	50 220	100,0	26 461	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	24 208	48,2	10 802	40,8
sanoat	5 128	10,2	2 454	9,3
qurilish	2 524	5,0	1 285	4,9
savdo	8 778	17,5	5 287	20,0
tashish va saqlash	688	1,4	367	1,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 113	4,2	1 204	4,6
axborot va aloqa	416	0,8	233	0,9
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	420	0,8	337	1,3
boshqa faoliyat turlari	5 945	11,9	4 492	16,8

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 32 315 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 18 959 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 58,7 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) savdo (27,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (19,5 %) sanoat (15,9 %) va qurilish (7,8 %) sohalariga to'g'ri keldi.




Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2024-yil 1-oktabr holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
Jami	32 315	100,0	18 959	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 303	19,5	3 300	17,4
sanoat	5 128	15,9	2 454	12,9
qurilish	2 524	7,8	1 285	6,8
savdo	8 778	27,2	5 287	27,9
tashish va saqlash	688	2,1	367	1,9
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 113	6,5	1 204	6,4
axborot va aloqa	416	1,3	233	1,2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	420	1,3	337	1,8
boshqa faoliyat turlari	5 945	18,4	4 492	23,7

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) Jizzax shahri 8 597 ta (26,6 %), Sharof Rashidov 4 447 ta (13,8 %), G'allaorol 3 004 ta (9,3 %) va Zomin 2 842 ta (8,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-oktabr holatiga 18 959 tani tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 92,2 foizga (1 607 ta) kamaygan. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 27,9 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 17,4 foiz, sanoat – 12,9 foiz, qurilish – 6,8 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 6,4 foiz, tashish va saqlash – 1,9 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,8 foiz, axborot va aloqa – 1,2 foiz, boshqa sohalar – 23,7 foiz.

Hududlar kesimida

Jizzax viloyati	18 959	Jizzax shahri	4 872
Arnasoy tumani	773	Zarbdor tumani	999
Baxmal tumani	1 437	Mirzacho‘l tumani	691
G‘allaorol tumani	1 779	Zafarobod tumani	560
Sharof Rashidov tumani	2 509	Paxtakor tumani	976
Do‘stlik tumani	772	Forish tumani	1 378
Zomin tumani	1 717	Yangiobod tumani	496



Jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning
hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(2024-yil 1-oktabr holatiga, birlik)

	2024- yil 1-oktabr holatiga ro'yxatga olinganlar soni	shuningdek, 2024- yil yanvar-sentabr oylari davomida:	
		yangi tashkil etilganlar	tugatilganlar
Jizzax viloyati	50 220	3 679	1705
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 670	822	340
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	2 962	253	65
Baxmal	4 267	274	99
G'allaorol	5 650	416	178
Sharof Rashidov	6 708	397	158
Do'stlik	2 225	141	91
Zomin	4 906	366	127
Zarbdor	3 834	239	187
Mirzacho'l	2 466	110	69
Zafarobod	2 215	111	77
Paxtakor	2 508	172	74
Forish	2 727	264	186
Yangiobod	1 082	114	54

2024- yilning yanvar–sentabr oylarida jami 3 679 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan, kichik biznes sub'yektlari 3 588 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Jizzax shahrida (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 822 tasi yoki 22,3 %), G'allaorol (416 ta yoki 11,3 %), Sharof Rashidov (397 ta yoki 10,8 %), Zomin (366 ta yoki 10,0 %), Baxmal (274 ta yoki 7,4 %), Forish (264 ta yoki 7,2 %), Arnasoy (253 ta yoki 6,9 %), Zarbdor (239 ta yoki 6,5 %), Paxtakor (172 ta yoki 4,7 %), Do'stlik (141 ta yoki 3,8 %), Yangiobod (114 ta yoki 3,1 %), Zafarobod (111 ta yoki 3,0%) va Mirzacho'l tumanlarida 110 ta (3,0 %) ni tashkil qildi.



Ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)


	2024- yil 1-oktabr holatiga ro'yxatga olinganlar	shuningdek, 2024- yil yanvar-sentabr oylari davomida:	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
Jizzax viloyati	32 315	3 659	1482
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 597	822	339
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1 338	252	52
Baxmal	2 266	274	85
G'allaorol	3 004	413	155
Sharof Rashidov	4 447	395	144
Do'stlik	1 318	137	77
Zomin	2 842	366	110
Zarbdor	1 622	232	118
Mirzacho'l	1 280	110	51
Zafarobod	1 036	111	69
Paxtakor	1 618	171	50
Forish	2 160	264	182
Yangiobod	787	112	50

2024- yilning yanvar–sentabr oylarida jami 3 659 ta yangi korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) ro'yxatga olingan, shundan kichik biznes sub'yektlari soni 3 568 tani tashkil qildi. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 822 tasi, yoki 22,5 %), G'allaorol (413 ta yoki 11,3 %), Sharof Rashidov (395 ta yoki 10,8 %) va Zomin (366 ta yoki 10,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1-oktabr holatiga 28 903 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan xususiy korxonalar 4 816 ta, oilaviy korxonalar 2 796 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 20 848 ta, aksionerlik jamiyatlari 21 tani tashkil etdi.



Ro'yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 25,3 foizi savdo, 28,1 foizi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 22,1 foizi sanoat va 7,1 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohaslariga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida 1 705 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.


2024- yilning 1-oktabr holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 198 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 71 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 64 ta, Rossiya Federatsiyasi 42 ta, Buyuk Britaniya 9 ta, Amerika Qo'shma Shtatlari 5 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 7 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, birlikda

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 90 tasi qo'shma korxonalar, 108 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

2024- yilning 1-oktabr holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlarining kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni – 54 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 38 taga ko'paygan. Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi– 29 ta, Rossiya Federatsiyasi – 10 ta, Turkiya Respublikasi – 6 ta hamda boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 9 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
(2024- yil 1-oktabr holatiga, birlikda)

	2024- yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotganlar soni	shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Jizzax viloyati	198	90	108
<i>shahar:</i>			
Jizzax	79	33	46
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	10	1	9
Baxmal	5	3	2
G'allaorol	13	5	8
Sharof Rashidov	20	8	12
Do'stlik	5	1	4
Zomin	13	8	5
Zarbdor	3	1	2
Mirzacho'l	3	-	3
Zafarobod	8	2	6
Paxtakor	10	8	2
Forish	24	17	7
Yangiobod	5	3	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 79 ta (umumiy sonidagi ulushi 39,9 %), Forish tumanida 24 ta (12,1 %), Sharof Rashidov tumanida 20 ta (10,1 %), Zomin tumanida 13 ta (6,6 %), G'allaorol tumanida 13 ta (6,6 %) hamda Paxtakor tumanida 10 ta (5,1 %) ni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi
(2024- yil 1-oktabr holatiga)

	Korxonalar soni, birlik	Jamiga nisbatan, % da
Jami	198	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19	9,6
Sanoat	101	51,0
Qurilish	11	5,6
Savdo	25	12,6
Tashish va saqlash	6	3,0
Yashash va ovqatlanish	3	1,5
Axborot va aloqa	18	9,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	0,5
Boshqa faoliyat turlari	14	7,1


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 198 ta korxonaning 101 tasi (51,0 %) sanoat, 25 tasi (12,6 %) savdo, 19 tasi (9,6 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 11 tasi (5,6 %) qurilish, 18 tasi (9,1 %) axborot va aloqa, 6 tasi (3,0 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,5 %) yashash va ovqatlanish, 1 tasi (0,5 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 14 tasi (7,1 %) boshqa sohalarga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklari bilan)

2024- yil 1-oktabr holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 15 826 tani tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,7 foizga kamaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 137 tasi (26,1 %) Jizzax shahriga, 2 169 tasi (13,7 %) Sharof Rashidov, 1 507 tasi (9,5%) G'allaorol va 1 416 tasi (8,9 %) Zomin tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 23 327 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3 255 tasi (20,6 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 5 279 tasi (33,4 %) savdo, 2 422 tasi (15,3 %) sanoat, 1 265 tasi (8,0 %) qurilish, 1 200 tasi (7,6 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 364 tasi (2,3 %) tashish va saqlash, 259 tasi (1,6 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 218 tasi (1,4 %) axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1 564 tasi (9,9 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keldi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmoqlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohaslariga to'g'ri keldi.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimoti, % da (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)



2024- yilning yanvar–sentabr oylarida yangi 3 568 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilgan. Bu esa 2023- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 101,8 foizga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (793 ta), G'allaorol (408 ta), Sharof Rashidov (382 ta), Zomin (355 ta), Baxmal (265 ta), Forish (263 ta) va tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Arnasoy (250 ta), Zarbdor (228 ta), Paxtakor (166 ta), Do'stlik (135 ta), Mirzacho'l (109 ta), Yangiobod (108 ta), hamda (106 ta) Zafarobod tumanlarida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko'pi savdo (924 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (1024 ta), sanoat (809 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (260 ta) sohalari, shuningdek boshqa faoliyat turlari (260 ta) hissalariga to'g'ri keldi. Eng kam esa, qurilish (124 ta), axborot va aloqa (91 ta), tashish va saqlash (39 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (37 ta) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024- yilning 1-oktabr holatiga 2 796 tani tashkil etdi, ulardan 1 468 tasi yoki 52,5 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining 502 tasi yoki 34,2 foizi sanoat, 449 tasi yoki 30,6 foizi savdo, 242 tasi yoki 16,5 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 152 tasi yoki 10,4 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 15 tasi yoki 1,0 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 12 tasi yoki 0,8 foizi qurilish, 5 tasi yoki 0,3 foizi axborot va aloqa, 5 tasi yoki 0,3 tashish va saqlash hamda 86 tasi yoki 5,9 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keldi.



Xususiy korxonalar soni (2024- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2024- yil 1- oktabr** holatiga ko'ra 4 816 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 126 taga yoki 2,5 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2 280 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 693 taga yoki 23,3 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 272 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 139 taga yoki 33,8 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2024- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni **2024- yil 1-oktabr** holatiga ko'ra 20 848 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 103 taga yoki 11,2 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 938 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 575 taga yoki 4,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 898 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 171 taga yoki 6,3 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

